

INNOVATOR

2026 / 01 (25) SON

MAGAZINE

Nazzar ilovasini
yuklab oling va
innovator
bilan tanishing!



Smartfon kamerasi
belgisi bo'lgan 
rasmga yo'naltiring



**“VENCHUR FONDLARI
FAOLIYATI”GA
BAG‘ISHLANADI**



**AZIZBEK
QURBONOV**

**CEO &
INVESTOR**

«INNOVATOR»

o'quvchi-yoshlarga bag'ishlangan ilmiy-texnikaviy,
tahliliy ommabop nashr

2026-yil, 1-son

Muassis:

Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi

Tahririyat kengashi raisi:

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,

tex.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Tahrir kengashi a'zolari:

Norov Asror Egamberdiyevich, i.f.d., (DSc), dotsent,
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi direktori
v.v.b., Tahrir kengashi raisi o'rinbosari

Salimov Oqil Umurzoqovich, tex.f.d., prof., akademik, Iste'-
dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jamg'armasi
rahbari

Turdikulova Shaxloxon Utkurovna, b.f.d., prof., O'zbekis-
ton Respublikasi Fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti

To'ychiyev Olimjon Alijonovich, tex.f.d. (DSc), dotsent,
Turin universiteti rektori

Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna Oliy ta'lim, fan
va innovatsiyalar vazirligi axborot xizmati rahbari

Raximov Bobur Kamolovich i.f.f.d. (PhD), NazzAR loyihasi
asoschisi

Tahrir hay'ati a'zolari:

Raximov Farxod Xushboqovich, tex.f.d, prof.,
Ilmiy-texnik axborot markazining Patent tadqiqotlari
va ixtirochilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'limi
boshlig'i

Saloyeva Hilola Ravshan qizi, f.f.f.d. (PhD), Ilmiy-
texnik axborot markazi Ilmiy tahririyat va noshirlik
boshqarmasi bosh mutaxassisi

A'zamov Temur Narzullayevich, tex.f.f.d. (PhD),
Innovatsion rivojlanish agentligi Axborot kommunikati-
siya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish
boshqarmasi boshlig'i

Daminov Asror Mahmayusupovich, tex.f.f.d. (PhD),
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ilm-fan va
innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi bosh
mutaxassisi

Sobirxonov Akbarxon Aziz o'g'li, i.f.f.d. (PhD), Oliy
ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yoshlar akade-
miyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i

Direktor

Nazirov Sardor Jamoliddin o'g'li

Bosh muharrir

Abdullayeva Sevara Erkinovna

Muharrir

Muhammadiyeva Fazilat Abdumurodovna

Muxbirlar

Abdullayeva Nodira Rustamovna
Mahkamova Gulbahor Hamzayevna

Sahifalovchi dizayner

Sapayev Umid Sadullayevich

Fotomuxbir

Axmadov Ahmadjon Mels o'g'li

Tahririyat taqdim etilgan ma-
qolalarni taqriz qilish va qay-
tarish majburiyatini olmagan.
Maqolada keltirilgan dalillar
va ma'lumotlar uchun muallif
javobgardir. Jurnalda nashr etil-
gan barcha materiallar mualliflik
huquqi obyekti sanaladi. Jurnal
sahifalarida chop etilgan mate-
riallardan foydalanilganda
"Innovator" ilmiy-texnikaviy,
tahliliy ommabop jurnalidan
olindi deb ko'rsatilishi shart.

Tahririyat manzili:

100174, Toshkent sh., Universitet ko'chasi, 7-uy.

Telefonlar: (99888) 007-55-92,

(99890) 989 92 94

Veb-sayt: www.innovator.csti.uz

E-mail: innovatorjournal@gmail.com

25.02.2026-yilda bosishga ruxsat berildi.

Adadi: 350

Obuna indeksi – 1394

ISSN 2181-323X

**Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi to-
monidan 522541 raqamli guvohnoma berilgan.**

Mundarija

2026-yil, 1-son

“VENCHUR FONDLARINING FAOLIYATI”GA BAG’ISHLANADI

4

UZVC – INNOVATSIYA, INVESTITSIYA VA STARTAPCHILAR UCHUN TAYANCH MANBAYI

7

KELAJAK KASBLARIGA YO’L: YOSHLAR UCHUN RAQAMLI VA AI TA’LIM IMKONIYATLARI

10

“IMKON VENTURES” – QADRIYATLARGA MOS RAQAMLI TA’LIM MODELINI QO’LLAB-QUVVATLAMOQDA

14

“ALOQAVENTURES”NING BARQAROR INVESTITSIYA PORTFELI: MUVAFFAQIYATLI STARTAPLAR

18

VENCHUR FONDI – TAVAKKALCHILIKKA EGA BIZNES

23

QULAY TIBBIYOT: “MUAMMODAN YECHIMGACHA – “ONLAYN HAMSHIRA”

26

“SQB VENTURES” DIQQAT-MARKAZIDA – FINTECH VA SAAS LOYIHALAR

29

“YOSHLAR VENTURES” O’ZBEKISTON YOSHLARINING INNOVATSION G’OYALARINI RIVOJLANTIRMOQDA

32

C-SPACE: YOSH TADBIRKORLAR UCHUN START NUQTASI

34

D-CLINICS: TIBBIY KLINIKALAR FAOLIYATINI TIZIMLASHTIRUVCHI INNOVATSION PLATFORMA

37

“SMART DALA”: ILOVA ORQALI SUVNI TEJANG

40

“TUXUM DENGIZDA SUZADIMI?” YOXUD “PIZIK” BOLALAR ORZUSIDAGI LOYIHA

43

LANDSHAFT DIZAYNI – IQLIM O’ZGARISHIGA MOS YECHIM

47

XALQARO MAYDONDA PORLAYOTGAN YOSH MATEMATIK

LANDSHAFT DIZAYNI – IQLIM O'ZGARISHIGA MOS YECHIM

Xalqimizda “Yer – boylik manbai” degan hikmatli gap bor. Bugungi kunda atrof-muhitni asrash, shahar va qishloqlarni ko'kalamzorlashtirish, ekologik muammolarga ilmiy yondashuv asosida yechim topish dolzarb vazifaga aylangan. Iqlim o'zgarishi sharoitida landshaft dizayni va manzarali o'simliklarni yetishtirish nafaqat estetik, balki iqtisodiy va ekologik ahamiyatga ham ega.

Shu yo'nalishda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan muhim loyihalardan biri landshaft dizayni, bog'dorchilik va manzarali o'simliklarni mahalliy sharoitda ko'paytirish texnologiyalarini ishlab chiqishdir. Ushbu ilmiy-amaliy ishlar Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti Sobira Mamadaliyeva tomonidan olib borilmoqda.



**Mamadaliyeva
SOBIRA**



Nega landshaft dizayni?

Ilmiy faoliyatim qishloq xo'jaligi va atrof-muhit bilan chambarchas bog'liq. Bog'dorchilik va landshaft dizayni yo'nalishida olib borilayotgan tadqiqotlarimning asosiy maqsadi chetdan keltirilayotgan qimmat texnologiyalar o'rniga, O'zbekiston sharoitiga mos, samarali va tejamkor usullarni joriy etishdir. Avvallari dekorativ o'simliklarni ko'paytirish texnologiyalari, asosan, xorij tajribasiga tayanib kelgan bo'lsa, bugun bu jarayonni mahalliy ilmiy ishlanmalar asosida rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ldi. Ilmiy tadqiqot ishlari olib borishim va umuman, shu darajaga yetishishimga asosiy sababchi inson – bu otam.

2022-yildan boshlab “Golubika ko'chatlarini yetishtirish texnologiyasi” bo'yicha ilmiy ishlanmalarim bilan respublika va xalqaro anjumanlarda qatnashib kelmoqdaman. Golubika dunyo bozorida yuqori qiymatga ega rezavor meva bo'lib, uni yetishtirish murakkab agroteknologiyalar talab etadi. Olib borilgan 4 yillik tadqiqotlarim asosida golubikani urug'idan mahalliy sharoitda yetishtirish



mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ushbu loyiha O'zbekiston iqtisodiyoti va eksport salohiyati uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Ayni paytda “Dovud buddleyasi (*Buddleia davidi*) butasining bioekologiyasi, manzaraviyligi va ko'paytirish texnologiyasi” mavzusida ilmiy izlanish olib boryapman. Tadqiqotning dolzarbligi manzarali bog'dorchilik va ko'kalamzorlashtirish sohalarida ekologik barqaror, dekorativ va moslashuvchan o'simliklarni keng joriy etish zaruratidan kelib chiqadi. Tadqiqotlar Toshkent davlat agrar universiteti tajriba xo'jaligi hamda Chirchiq tumanidagi “Bahor gullari” MChJda o'tkazilmoqda.

Ilmiy ish natijalari kelgusida shahar va qishloqlarning landshaft dizaynini yaxshilash, yashil hududlarni kengaytirish hamda ekologik muammolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Olim sifatida mening asosiy maqsadim ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etib, jamiyat va atrof-muhit uchun foyda keltirishdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh olimlarni, xususan, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ushbu e'tibor va ishonch ilmiy izlanishlarimni yanada rivojlantirishga kuch bag'ishlamoqda.



Biz bilan bogʻlanish uchun

